

YANGI O‘ZBEKISTONDA YASHIRIN IQTISODIYOT

Davronov Farmonbek Do‘stmurod o‘g‘li

Buxoro davlat texnika universiteti 2-kurs talabasi

Annotatsiya: *ushbu maqola butun dunyoni qamrab olgan yashirin iqtisodiyotning O‘zbekistondagi vaziyati, holati, ta’sirlari, darajasi, shakllanish yo‘nalishlari va uning yechilishi kerak bo‘lgan masalalarini ochib berish uchun qaratilgan.*

Kalit so‘zlar: *xususiy sektor, yashirin iqtisodiyot, iqtisodiy o‘rish, mehnat resurslari, inson kapitali, mehnat unumdorligi, aholi daromadlari.*

Bu yashab turgan olamda barcha insonlarda ehtiyoj mavjud hisoblanadi. Insonlarning ehtiyojlarini chek-chegarasi yo‘qdir. Agar inson qo‘lida yashash uchun barcha shart-sharoitlar mavjud bo‘lsa ham yana nimagadir ehtiyoj sezadilar. Va yana o‘zida bor hammasidan ham ko‘ra yangi vujudga kelgan ehtiyojini qondirishga harakat qiladi. Shu sababdan insonlarning ehtiyojlarini chegarasi tuganmas hisoblanadi. Bu tuganmas ehtiyojlarni qondirishni iloji yoqdir. Shu o‘rinda “ Nimaga?” degan savolni berishimiz mumkin. Bu savolga javob esa, dunyoda barcha insonlar ehtiyojlarining chegarasi yo‘qdir, ammo mana shu ehtiyojlarni to‘la qonli qondirish uchun yer yuzida “ resurs” yo‘qdir. Mana hamma muommo mana shu yerdan boshlanadi?. Demak, barcha insonlar o‘zlarining ehtiyojlarini to‘la qonli qondirish uchun maksimal darajada harakat qilishini bilib olishimiz qiyin emas. Ammo yer yuzida 8 mlrddan ziyod insonlar, bizning yurtimizda esa 36 mlndan ortiq aholi yashab kelmoqda. Bu esa shunday keskin va tahlikali zamonda yurtimiz aholisining hayot tarzini yaxshilash, yashash uchun shart-sharoitlar yaratish, aholini ish bilan ta‘minlash, o‘sib kelayotgan yosh avlodni barkamol voyaga yetishi uchun zamin yaratish, ilm-fan texnika- texnologiya shiddat bilan keskin rivojlanayotgan davrda raqabatbardosh yoshlarni yetishtirib chiqarish, milliy va xalq boyligimiz hisoblangan yer, yer osti boyliklar hamda yer usti boyliklarimizdan judayam oqilona foydalanish, va ularni bizdan keyingi avlod uchun yetkazish oldimizga qo‘ygan eng muhim vazifamiz hisoblanadi. Ammo mana shunday bizni o‘ylantiradigan vaziyatda dunyoda iqtisodiyotni o‘stirish o‘rniga, ko‘plab insonlar va tadbirkorlar o‘zlarining foydasini ko‘zlagan holda iqtisodiyotga ziyon yetkazmoqda deb hisoblayman. Iqtisodiyotiga yetkazilayotgan bu zararlarning barchasi iqtisodiyotning yashirin turi hisoblanadigan “ xufyona iqtisodiyot”dir.

Avvalo yashirin iqtisodiyotning yaralish tarixiga nazar tashlaydigan bo‘lsak, 20-asrning 20-30-yillarida etiborga tushib boshlangan bo‘lsa, XX - asrning 70-yillaridan yashirin iqtisodiyot ilmiy tadqiq qilina boshlangan . Hozirgi kunda butun dunyo mamlakatlarining rivojlanishini sekinlashtirayotgan muhim masalalardan biri bu – Yashirin iqtisodiyot hisoblanadi. Har qanday mamlakatda hech bo‘lmaganda ozgina bo‘lsa ham yashirin iqtisodiyotning bir qismi mavjuddir. Kuzatishlar va tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki xufyona iqtisodiyot rivojlangan davlatlarda kamroq, rivojlanayotgan, shuningdek, bozor iqtisodiyotiga o‘tish uchun chuqur islohotlar olib borayotgan sobiq sotsialistik davlatlarda kengdir. Xufyona iqtisodiyotning paydo bo‘lishi va rivojlanishi har bir davlatning rivojlanganlik darajasi, shu

davlatda ijtimoiy-iqtisodiy holati, iqtisodiyotning davlat tomonidan boshqarilishi va tartibga solinishi bilan bog’liqdir.

Birinchi o’rinda yashirin iqtisodiyot o’zi qaysi sohalarda yoki qanday vaziyatlarda yuzaga chiqadi?- degan savolga javob izlashga harakat qilib ko’rsak. Xufyona iqtisodiyot pul-kredit, valyuta, soliq, tashqi savdo, savdo va umumiy ovqatlanish, uy-joy qurilishi va ta’mirlash, turarjoy xizmatlarini ko’rsatish va hozirgi kundagi dolzarb hisoblangan byudjet tashkilotlari kabi sohalarda yaqqol ko’zga tashlanmoqda. Shu o’rinda xufyona iqtisodiyotni, yashirin faoliyat olib boruvchi tadbirkorlar, tijoratchilar, korxona va firmalar hamda byudjet tashkilotlari vakillari amalga oshirib kelayotganini amalda guvohi bo’lishimiz mumkin. Biz bu kabi vaziyatlarga, bu kabi hollarga ko’p tushishimiz mumkin. Iqtisodiyotning bunday holatini chuqur ildiz otib ketishiga ko’pgina omillar mavjud hisoblanadi. Juda ko’p hollarda bunday yashirin iqtisodiyotning chuqurlashib ketishiga insonlarning o’zi sabab bo’lib qolmoqda.

Bilamizki xufyona iqtisodiyotning ishtirokchilari bevosita insonlar hisoblanadi. Xufyonalik o’zi shaxslarni kundalik hayotda qonun va normalardan foydalanmasligi, yozilmagan qonunlar hamda urf odatlardan foydalanish ortidan kelib chiqadi. Demak xufyonalik so’zining mazmunini o’rganadigan bo’lsak, Xufyona iqtisodiyot bu qonun asosida man qilingan faoliyat turi, iqtisodiy faoliyatning kuzatilmagan va yashirin turi, rasmiy statistika va hisobga olinmagan faoliyat turi hisoblanadi.

Xufyona iqtisodiyotning asosi hisoblangan xufyonalikning o’zi qanday kelib chiqishini biz, huquqiy qoidalaridan bo’yin tovlash, soliqlar va ish haqiga hisoblamasdan yozishlar, shartnoma tizimidan foydalanmaslik, xufyona bitimlar va nizolarni hal etishda yozilmagan qonunlardan foydalanishdan kelish chiqishini juda yaxshi bilamiz.

Ana endi bu sohalarning mazmunini ko’radigan bo’lsak: huquqiy qoidalaridan bo’yin tovlashning ichida soliq va boshqa moliyaviy xizmatlar uchun haq to’lamaslik, ishlab chiqarish hajmini cheklab ko’rsatish yohud ikkiyoqlama buxgalteriya hisobotlari kabi masalar chuqur joy olgan sanaladi. Soliqlar va ish haqiga hisoblamasdan yozishlar esa o’z o’rnida bizga juda katta zararni keltirib chiqaradi. Bilamizki tadbirkorlik subyektlari davlatga daromad solig’i, faoliyat turiga qarab yana qo’shimcha soliqlar hamda pensiya va ijtimoiy sug’urta fondiga soliqlar to’laydi. Agar tadbirkor faoliyatini hamda ishlab chiqarish hajmini, daromadlari va ishlatayotgan ishchi-xodimlarini hisobi aniq qilib ko’rsatilmasa bu davlatning iqtisodiyotiga katta zarar. Agarda xususiy sektorda faoliyat olib borayotgan ishchi-xodimlarning soni davlatda aniq ro’yxatda turmasa bu mamlakatda ishsizlik darajasi, aholi soni va migrantlar oqimini hisoblashda qiyinchilik tug’diradi. Shu bilan birga mamlakat Yalpi ichki mahsulotining hajmi ham hisob-kitobda noaniq bo’lib qoladi. Bu esa mamlakatning jahon davlatlari reytingida past o’ringa tushib ketishini ta’minlab beradi. Xufyona faoliyat olib borayotgan birorta shaxs davlatga va davlatning qonunlariga qarshi chiqqan ham bo’ladi. Bu o’z o’rnida mamlakatda korrupsiya keng ko’lamda yoyilishiga olib keladi.

Mamlakatimizda ham xufyona iqtisodiyotning mavjudligi hamda uning o’rni yuqori foizlarda ekanini ko’rishimiz mumkin. 2024-yil yakunlariga ko’ra, O‘zbekiston Respublikasida kuzatilmaydigan (norasmiy va yashirin) iqtisodiyotning yalpi qo’shilgan qiymati hajmi 505 650,1 mlrd so‘mni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 34,8 % ni tashkil etdi. Shundan

norasmiy iqtisodiyotning yalpi qo‘shilgan qiymati hajmi 383 643,7 mlrd so‘mni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 26,4 % ni tashkil etdi. Yashirin iqtisodiyotning yalpi qo‘shilgan qiymati hajmi esa 122 006,5 mlrd so‘mni va uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushi 8,4 % ni tashkil etdi . Kuzatilmaydigan iqtisodiyot ko‘rsatkichi bo‘yicha tarmoqlar tarkibida qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi yetakchilik qilmiqda- jami hajmga nisbatan 63.6%ni tashkil etgan.

Bu raqamlar qanchalik yuqori bo‘lsa mamlakat iqtisodiy salohiyati shunchalik orqaga tortilaveradi. Mamlakatimizda xufyona iqtisodiyotni hajmini qisqartirish uchun pul-kredit, valyuta, soliq va tashqi savdo siyosatini yaratib berish chora tadbirlari olib borilayotganini guvohi bo‘lishimiz mumkin. Ammo shunga qaramay xufyona iqtisodiyotning ulushi yurtimizda katta foizni tashkil etmoqda.

XULOSA

Biz bugungi kunda mamlakatimizni shakllantiradigan bo‘lsak, yurtimiz iqtisodiyotini rivojlantiradigan bo‘lsak, O‘zbekistonning uchinchi renessansini quramiz desak, shuni aslo yoddan chiqarmasligimiz kerakki bu ishlarni avvalo o‘zimizdan boshlashimiz zarurdir. Sababi hamma jarayon insonning o‘zidan boshlanadi. Biz yoshlar qolimizdan kelmaydi deya qo‘l qovushtirib o‘tiraversak bu bizning kelajagimizning tanazzulga yuz tutishiga olib keladi. Hozirgi kunda judayam shiddat bilan rivojlanayotgan zamonda biz yosh avlod keskin ilmdan uzoqlashsak, yangicha dunyoqarashni shakllantirmasak bilishimiz kerakki biz bu yurti ozod va obod qilib rivojlantira olmaymiz. Bugungi kundagi dolzarb masalalardan biri bo‘lib kelayotgan ishsizlik muommosi ortidan xufyona iqtisodiyot keng ko‘lamda shakllanmoqda. Mana shunday muommolarni biri ustiga biri ko‘payib ketishidan oldin har bir muommoni o‘z vaqtida hal qilmog‘imiz darkor. Buning uchun esa biz yoshlar bir yoqadan bosh chiqarib harakat qilshimiz kerak. Maktablarda, uyda, ko‘chada va turli joylarda xufyona iqtisodiyotning ma‘lum bir bo‘lagiga duch kelsak ham unga shunchaki ko‘z yumib o‘tishimiz emas, balki ularni o‘sha joyda bu qilayotgan ishi noto‘g‘ri ekanligini tushuntirishimiz kerak. Faqatgina bu ishni biz yoshlar amalga oshira olamiz. Chunki biz yoshlar yangi asr farzandlarimiz. Biz texnika-texnologiya asrida yashab kelmoqdamiz. Shu sababdan biz yoshlar bunday masalaga jiddiy qarashimiz kerak. Agar biz yoshlar hayot maqsadi faqat biror bir faoliyat bilan yakunlanishi kerak degan g‘o‘yadan voz kecha olsak, demak biz yangi renessansni qurishni boshlagan hisoblanamiz. Biz shiddat bilan rivojlanayotgan davrda raqobatbardosh yoshlar ekanligimizni, ajdodlarimiz buyuk insonlar bo‘lib biz ham ajdodlarimiz singari ilm-fan da va rivojlanishda yuksak natijaga erisha olishimizni isbotlashimiz kerak va bunga harakatni kuchaytirishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Xufyona iqtisodiyot: o‘quv qo‘llanma. H.P.Abulqosimov, N.G.Muminov – T.: Yangi nashr, 2020. – 304 b.
2. Kun.uz internet nashri.
3. O‘zbekiston Respublikasi statistika agentligi 2024- yil dastlabki ma‘lumotlari.